

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
(ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
“ECONOMIC RESEARCH)**

ILMIY JURNALI

1

2023

Toshkent

**1
2023**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный
журнал
Scientific digital journal**

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI**

MUASSIS

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tahrir kengashi raisi:

Abduraxmonov Qalandar Xodjayevich – i.f.d., prof., akademik

Tahrir kengashi:

Eshov Mansur Po'latovich- i.f.d., professor
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna – i.f.d., professor
Xudoyqulov Sadridin Karimovich – i.f.d., professor
Begalov Baxodir Abdusalovich– i.f.d., professor
Bekmurodov Adxam Sharipovich- i.f.d., professor
Vaxabov Abduraxim Vasikovich- i.f.d., professor
Maxmudov Nosir Maxmudovich- i.f.d., professor
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich- i.f.d., professor
Mustafaqulov Sherzod Igamberdiyevich- i.f.d., professor
Jumayev Nodir Xosiyatovich- i.f.d., professor
G'ofurov Ubaydullo Vaxabovich- i.f.d., professor
Xolmo'minov Shayzaq Raxmatovich- i.f.d., professor
Amirov Lochinbek Fayzullayevich – i.f.f.d. PhD, dotsent
Xatamov Ibodullo Sadullayevich – i.f.n., dotsent
Asqarova Mavluda Turopovna– i.f.n., dotsent
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich– i.f.n., dotsent
G'ayibnazarov Sanjar Baxodirovich – i.f.n., dotsent
Kamalova Malika Nizamovna– i.f.n., dotsent
Mamaraximov Bekzod Erkinovich- i.f.n., dotsent

Tahrir hay'ati:

Begzod O'rinov– (AQSh)
Uktam Burxanov – (Chexiya)
Bozorboy Berkinov – i.f.d. (O'zbekiston)
Mark Rozenbaum (AQSh)
Volfgang Lukas (Germaniya)
N.V.Morozov (Rossiya)
Viktoriya Vdovichenko (Ukraina)
Gulyabmir Raxmani (Afg'oniston)
Axmed Muxamed Aziz Ismail (Misr)
Kaukab Azim (Saudiya Arabistoni)
Sherqul Shodmonov (Toshkent)
Rauf Salaxodjayev (Toshkent)
Axmedjon Mamatov (Toshkent)
Ju Jengron (Xitoy)
Jou Chingjiye (Xitoy)

© ISSN 2181-4457

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
ILMIY JURNALI**

**1
2023**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный
журнал
Scientific digital journal**

Bosh muharrir:

Eshov M.P.- i.f.d., prof.

Adabiy muharrir

Xajiyev B.D.- i.f.n., dots.

Bosh muharrir o'rinbosari

Amirov L.F. - PhD

Musahhih:

Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydalanilganda "Iqtisodiy tadqiqotlar" ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart. Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.

Veb-sayt manzili: <https://economicresearch.tsue.uz>

E-mail: economicresearchjournal@gmail.com

MUNDARIJA

| IQTISODIYOT, INNOVASIYA VA TADBIRKORLIK NAZARIYA VA AMALIYOT | | |
|--|--|----|
| Rasulev A.F. Shomurodov T.B. | Development process of Islamic finance in Uzbekistan: opportunities and future outlook | 5 |
| Mamatov M. A Jo'rayev G'.B. | Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribasi | 14 |
| BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV | | |
| Kakhorova A.N. | The theory, objective and function of the monetary policy | 25 |
| INSON RESURSLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIIY SIYOSAT VA BANDLIK | | |
| Sherkulova N.B. | Aholi ish bilan bandlik darajasini oshirishda rekruting xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari. | 32 |
| Kuziyeva G.R. | Education Policy and Human Capital Development: Evaluating the effectiveness of different education policies in Uzbekistan | 45 |
| TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH | | |
| Sharipov K.B. | Iqtisodiyot tarmoqlari ixtisoslashuvining nazariy asoslari, turlari va unga ta'sir etuvchi omillar | 55 |
| Mamatov S.A. | Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish. | 66 |

**SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH
STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH**

**РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЛИЧНОСТИ**

**DEVELOPMENT OF A STRATEGY FOR ENSURING THE
ECONOMIC SECURITY OF THE INDIVIDUAL**

MAMATOV SARDOR AXMATJONOVICH

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

+99899-300-48-32

mamatovahmadjon@rambler.ru

Annotatsiya: maqolada shaxsning iqtisodiy xavfsizligi mohiyati va unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi taxditlar tadqiq etilgan va tizimlashtirilgan, davlatning ijtimoiy siyosati, aholini daromadlar bo'yicha tabaqalanishi kabi omillarning ta'siri taxlil etish asosida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tranzitiv iqtisodiyot, ijtimoiy soha, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi, taxdit, obyekt va subyekt, aholi daromadlari, differentsatsiya koeffitsiyenti, inson kapitali, yollanma mehnat, ishsizlik, transfert daromadlari.

Аннотация: в статье исследована и систематизирована природа экономической безопасности личности и воздействующие на нее внутренние и внешние угрозы, разработаны предложения и рекомендации по разработке стратегии обеспечения экономической безопасности личности на основе анализ влияния таких факторов, как социальная политика государства, имущественная стратификация населения.

Ключевые слова: транзитивная экономика, социальная сфера, экономическая безопасность личности, угроза, объект и субъект, доходы населения, коэффициент дифференциации, человеческий капитал, наемный труд, безработица, трансфертный доход.

Abstract: The article investigates and systematizes the nature of the economic security of the individual and the internal and external threats affecting it, develops proposals and recommendations for developing a strategy for ensuring the economic security of the individual based on an analysis of the influence of such factors as the social policy of the state, property stratification of the population.

Key words: transitive economy, social sphere, economic security of the individual, threat, object and subject, income of the population, differentiation coefficient, human capital, hired labor, unemployment, transfer income.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston strategiyasining “Adolatli ijtimoiy siyosat” bobida bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy sohadagi muammolar: aholini va ayniqsa unda yoshlarni bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy trabiya va sport, ta’lim va tarbiya, ilm-fan va innovatsion taraqqiyot va aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirishda mavjud muammolarga alohida e’tibor qaratilgan. Bu xaqda “«Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat» degan g‘oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo‘lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o‘tishga qodir bo‘lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur”[1].

Shaxs bir paytning o‘zida xavfsizlik sohasining obyektini ham subyekti bo‘lgani holda, xavfsizlik sohasining barcha tizimlarida mavjud bo‘ladi va tizim tashkil etuvchi vazifasini bajaradi. Insonlar, ularning hayotiy qiziqishlari va ehtiyojlari, jamoalar va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ijtimoiylashuv tizimlari (ta’lim, tarbiya, madaniyat, kundalik hayot) va insonning hayotiy faoliyatini ta’minlash tizimlari (sog‘liqni saqlash, savdo, ta’minot) shaxsning iqtisodiy xavfsizlikning obyektini sanaladi. Ushbu sohalardagi muammolar mamlakat taraqqiyotiga tahdit bo‘lib, muammolarni samarali yechimi, mamlakatda shaxsning iqtisodiy xavfsizligi ta’minlanganligini va bu o‘z navbatida milliy iqtisodiyotda iqtisodiy xavfsizlik ta’minlanganligini ifoda etadi. Bu mamlakatimizda shaxsning iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatmoqda.

ILMIY MUAMMONING QO‘YILISHI

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nazariyasi va uslubiyatini tadqiq etgan xorijlik olimlar qatorida B.G.Klayner, G.A.Saymon, G.Xaken U.B.Artur R. Mayyerson, E.Maskin, Y.A.Shumpeter, A.Y.Chalenko N.Luman, Dj.R. Kommons, K.Maynser, L.Gurvits, E.Morena, K.E.Shennon kabilarni keltirish mumkin.

Rossiyalik olimlardan L.I.Abalkin, V.L.Beresnev, A.D.Burikin, O.B.Damaskin, O.A.Stepanova, V.V.Chernova, M.AKotelnikova, S.A.Glotov, YE.S.Mityakova, YE.A.Oleynikov, V.S.Pankov, V. K.Senchagov, A.I.Tatarkin, D.V. Tretyakov va boshqalar ushbu mavzuga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekiston Respublikasida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning institutsional asoslarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini Respublikamiz olimlaridan Abulqosimov X.P., Rasulev T.S., Asatullayev X.S., Mamatov A.A., Jo'rayev T.T., Abulqosimov M.X., O'lmasov A., Vaxobov A.V., Tursunov B.O. va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

"Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi dastlab davlat tashkilotlari darajasida tan olingan va institutsional jihatdan qayd etilgan, chunki uzoq vaqt davomida davlat suveren huquqlarning yagona egasi sifatida qabul qilingan edi. 1934 yil iyun oyida AQSH Prezidenti F. D. Ruzvelt dunyoda birinchi marta "Iqtisodiy xavfsizlik qo'mitasini tashkil etdi[2].

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning institutsional nazariyasi asoschisi Dj.R. Kommons institutlarni tarixiy rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlab unga ko'ra "evolyutsion" tushunchasi "institutsional" tushunchasi bilan mazmun va ma'nosi bir xil bo'ladi deb ta'kidlaydi[3].

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan taxditlarning keng qamrovli klassifikatsiyasini rus olimlari Stepanova O.A., Chernova V.V., Kotelnikova M.A. tomonidan ishlab chiqilgan [4]. Glotov S. A. "Ijtimoiy xavfsizlik deganda shaxsni ijtimoiy himoyalanganlik ijtimoiy guruhning uning ijtimoiy huquq va erkinliklari sohasidagi hayotiy manfaatlarini tahdidlaridan: yashash, mehnat qilish huquqi va undagi ish xaqi, bepul va arzon ta'lim, davolanish, dam olish, kafolatlangan ijtimoiy himoyaii davlat tomoni ta'minlanganlik holati tushuniladi [5]. deb baho bergan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar X.S. Asatullayev., A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayevlar . "Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun tegishli shart-sharoitlarning mavjudligi, inson manfaatlari va ehtiyojlari qondirilishining turli xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanganligi, ijtimoiy barqarorlik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan erkin foydalana olish imkoniyatlarining ta'min etilishi, fuqarolarning qonuniy haq-huquqlarini kafolatlanganligi sifatida tushunishimiz mumkin" deb baho berishgan [6]. Yosh tadqiqotchi olim Abulqosimov M.X. shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan taxditlarni ichki va tashqi taxditlarga guruxlab tadqiq etgan [7].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga asoslangan xolda, shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan taxditlar qatoriga aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, qashshoqlikka barham berish, aholi daromadlarini ko'paytirish, bandlik, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizligini ta'minlash, nogironlar va kam ta'minlangan fuqarolar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish kabilarni tadqiq etish va ularning mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sirining nazariy va metodologik asoslari ochib berish muhim axamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral metodologiya va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy jarayonlar va tizimlarni modellashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi.

ASOSIY TAXLIL VA NATIJALAR

•Bugungi kunda jaxonda iqtisodiy rivojlanish muammolari xamda jahon iqtisodiyotining beqarorlashuvi tufayli iqtisodiy subyektlar manfaatlaridagi qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi yuzaga kelmoqda. Buning natijasida jamiyatda aholi tabaqalanishining kuchayishi, ijtimoiy sohaga yuklatilgan yuklamaning, davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishiga bo‘lgan e‘tiborni ortishi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning beqarorlashishi, yuz berayotgan yangi jarayonlar bilan oldingi tizim ta‘sirini to‘qnashuvi natijasida iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarini pasayishiga olib kelmoqda. Bu iqtisodiy subyektlarning faoliyatiga e‘tiborning dolzarbligini kuchayishi iqtisodiyotning tranzitiv turi bilan tavsiflaydi.

•Rivojlanishning tranzitivligi mamlakatning turmush faoliyatini ta‘minlash yalpi tamoyillarini amalga oshirish yondashuvlarini va qoidalarini majmuali o‘zgartiradi, bu esa yangi iqtisodiy imkoniyatlarning vujudga kelishiga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faollashuviga. ularning salohiyati va imkoniyatlaridan foydalanishda ko‘pvariantlikga va subyektlarning iqtisodiy barqarorligini o‘shishiga olib keladi. Biroq, transformatsiya jarayonida iqtisodiy salohiyatning ba‘zis asoslarini shakllantirish bilan bir qatorda, ijtimoiy ta‘minot sohasida buzilishlar, tartibsizliklar xam kuzatilmoqda. Ijtimoiy kafolatlar tizimini buzilishi va yangi iqtisodiy tizimni shakllantirish sur‘atlarining pasayishi ijtimoiy himoya mexanizmlarining qisqarishiga turtki beradi. Shakllanayotgan yangi tizim o‘z-o‘zini moslashtirish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitida davlat tomonidan minimal darajada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, uning natijasida ijtimoiy jarayonlarni qayta qurish va bu jarayonlarni tartibga soluvchi davlatning rolini aniqlamasdan turib iqtisodiyotni isloh qilish mumkin emas.

•Martins-da-Roja va Vaylakis [8] ga ko‘ra, asosiy endogen tranzaksiyalar, hatto moliyaviy kabi an‘anaviy bozorlarda ham axborotni qidirish, tashish, saqlash va o‘lchashni o‘z ichiga olgan jarayondir. Binobarin, iste‘molchining bozor konyuktura axborotlarini olish xarajatlari uning tranzaksiya xarajatlari hisoblanadi. Bundan tashqari, tranzaksiya xarajatlariga sotuvchilarni topish, opportunistdan himoya qilish va boshqalar xam kiradi. Tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish iste‘molchilar uchun tanlov imkoniyatini tenglashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu yondashuv so‘ngisi nuqtai nazaridan mahsulotning nafililigining eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, uning qiymatiga ta‘sir qiladi, bu esa reklama bilan bog‘liq bo‘lgan tranzaksiya xarajatlarining yuqori ulushiga ega ixtisoslashgan

ishlab chiqaruvchilarda yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni belgilaydi. Tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi iqtisodiyotning institutsionallashuvining kuchayishiga olib keladi, bu esa muqobil institutlarning shakllanishi va faoliyatining ijtimoiy xarajatlarini tartibga soluvchi davlat siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi.

•Ijtimoiy soha nafaqat iqtisodiy, balki milliy xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi, zero, ijtimoiy soha orqali shaxs, oila va shu bilan bir qatorda alohida ijtimoiy guruhlar hamda yaxlit tarzda jamiyatning manfaatlari va ehtiyojlari qondiriladi. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash bu ijtimoiy sohada takror ishlab chiqarishni rivojlanishi unda ijtimoiy xavfsizlikning maqbul darajasiga va tavsifiga erishish, jamiyatda mavjud konstitutsion tizimni, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlar majmuidir [9]. Davlatining ijtimoiy siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi tizim faoliyatini transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatda ijtimoiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtiruvchi tizim bo'lib hisoblanadi. Aynan shu joyda shaxs va davlat, shaxs va korxonalar o'rtasidagi turli - tuman ijtimoiy munosabatlarning mustahkamligi va o'zaro hamohangligi jiddiy sinovdan o'tadi. Biroq, iqtisodiy islohotlar natijasi ko'pincha aholining turmush sharoitini yomonlashuvi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining beqarorligi bo'lib, bu insonlar ongida qashshoqlik, ishsizlik, ijtimoiy himoyasizlik kabi salbiy jarayonlar ko'lamining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Kam sonli boylar va kam ta'minlangan fuqarolar sonining ko'pligini ifoda etuvchi jamiyatning mulkiy jihatdan tabaqalanishi ijtimoiy sohada mamlakatning xavfsizligiga katta tahdid tug'diradi [10].

•Yangi O'zbekiston strategiyasida shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan ijtimoiy tahdidlarni beshta katta blok asosida tizimlashtirish mumkin: aholining pul daromadlari darajasi bilan bog'liq tahdidlar; demografik vaziyat bilan bog'liq tahdidlar; bandlik sohasidagi tahdidlar, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hollarda; ijtimoiy nafaqalar miqdori va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari bilan bog'liq tahdidlar; sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va kommunal sohada yuzaga keladigan jarayonlar tufayli kelib chiqadigan tahdidlar. Tahdid – bu bevosita xavf – xatar bo'lib uning manbai ko'proq yoki kamroq darajada aniqlangan bo'lishi mumkin. Tahdid kimga qarshi yo'naltirilgan bo'lsa, shularning unga tez munosabat bildirishini talab qiladi.

•Shaxs bir paytning o'zida xavfsizlik sohasining ham obyektini ham subyektini bo'lgani holda, xavfsizlik sohasining barcha tizimlarida mavjud bo'ladi va tizim tashkil etuvchi vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqqan holda, shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy xavfsizlikning barcha bosqichlarida muhim o'rin

tutadi, ammo shuni ta’kidlash lozimki, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi o‘z navbatida jamiyat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, davlat va ekologik vaziyatga chambarchas bog‘liqdir.

• Shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

• qonuniylik;

• shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini mutanosibligiga rioya qilish;

• xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro mas’uliyatli bo‘lishi;

• xalqaro xavfsizlik tizimlari bilan integratsiyalashuv.

| № | Detsil guruxlari | 2017й | 2018й | 2019й | 2020й | 2021й | 2022й |
|-----|--|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| 1. | 1 detsil | 3,9 | 3,9 | 3,7 | 3,4 | 3,3 | 3,5 |
| 2. | 2 detsil | 5,5 | 5,4 | 5,3 | 5,1 | 5,1 | 5,1 |
| 3. | 3 detsil | 6,4 | 6,4 | 6,4 | 6,2 | 6,2 | 6,1 |
| 4. | 4 detsil | 7,2 | 7,3 | 7,3 | 7,1 | 7,2 | 7,0 |
| 5. | 5 detsil | 8,1 | 8,1 | 8,2 | 8,1 | 8,2 | 7,9 |
| 6. | 6 detsil | 9,1 | 9,1 | 9,2 | 9,1 | 9,3 | 8,9 |
| 7. | 7 detsil | 10,2 | 10,3 | 10,5 | 10,5 | 10,6 | 10,2 |
| 8. | 8 detsil | 11,6 | 11,7 | 12,1 | 12,1 | 12,5 | 11,9 |
| 9. | 9 detsil | 13,9 | 14,1 | 14,7 | 14,8 | 15,2 | 14,7 |
| 10. | 10 detsil | 24,1 | 23,7 | 22,6 | 23,5 | 22,5 | 24,8 |
| 11. | Aholi daromadlarining 10%li guruxlar bo‘yicha differentsiya koeffitsiyenti | 6,2 | 6,1 | 6,0 | 6,9 | 6,8 | 7,0 |

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholi daromadlarining aholining 10%li guruxlari bo‘yicha notekis taqsimlanishi [12].

O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, mulkka uy-joy, ko‘chmas mulk, aksiya (va boshqalar)ga ega bo‘lish omili o‘ynay boshlaydi. Daromadlarning tabaqalanish jarayoni yetarli darajada tez boradi, minimal darajadan bir necha o‘n baravar yuqori daromadga ega bo‘lgan ijtimoiy

lgan (qarang 1.jadval). O‘zbekiston Respublikasi aholi daromadlarining 10%li guruxlari bo‘yicha notekis taqsimlanishi ma‘lumotlariga ko‘ra 2022 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlarining 10%li guruxlar bo‘yicha

Ijtimoiy tengsizlik va daromadlar taqsimotidagi adolatsizlik aholining kam ta‘minlangan qatlaminin noroziligini o‘shiga va jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni meyorida saqlab turilishi ijtimoiy xamjihatlikni kafolatlaydi. Ijtimoiy barqarorlik kambag‘allar sonining qisqarib borishi bilan ham bog‘liq[13]. Bunday sharoitda farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a‘zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta‘minlashga qaratiladi. Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to‘lovlari taqozo qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to‘lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70-

asi ko‘rsatkichi bo‘lib, u shaxsning munosib turmush darajasini ifoda etuvchi moddiy resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasi va millat salomatligi ko‘rsatkichini o‘z ichiga oladi xamda ijtimoiy harakatchanlik, axborot bilan ta‘minlanganlik tarkibiga oladi. Biroq, insonning imkoniyatlarini faollashtiradigan, tanlash istiqbollarni kengaytiradigan, shaxsiy boyligini mutlaqlashtirishning qo‘llanilmaslik muhim ekanligini hisobga olish kerak. Boshqa tomondan, inson rivojlanishining integral darajasi bevosita moddiy turmush darajasi ko‘rsatkichiga bog‘liq bo‘lib, bu ko‘rsatkich davlatning iqtisodiy rivojlanishining ma‘lum taraqqiyotida asosiy ko‘rsatkichlar qatoriga kiradi.

hgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi aholi jon boshiga YAIM qiymatini aholi turmush darajasini aks ettiruvchi miqdor ko‘rsatkich sifatida qabul qilingan. Bu ko‘rsatkich mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini va aholi turmush ko‘rsatkichning o‘shisi bilan milliy iqtisodiyotning o‘shisini aks ettiradi va u

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OYECD) tomonidan kambag‘allik darajasiga nisbatan mezonlar tavsiya etilgan. Jumladan, kambag‘allik darajasi – bu ma‘lum yoshdagi aholi guruhi daromadlari, uy xo‘jaliklarining o‘rtacha daromadining yarmidan kam bo‘lgan chegaradan past bo‘lishi bilan izohlanadi. Qashshoqlik, ayniqsa, iqtisodiyotning davlat sektorida, qishloq joylarda va kichik shaharlarda, ko‘p bolali va to‘liq bo‘lmagan oilalarda band bo‘lgan fuqarolarga

xosdir. Kambag'allik nafaqat iste'mol qilinadigan iste'molning past darajasi, balki umuman past darajadagi mulk, ayniqsa uy-joy, odamlarning ta'minoti bilan bog'liqdir. Kambag'allik darajasiga nafaqat obyektiv omillar, balki subyektiv

Milliy ijtimoiy xavfsizlik darajasi ko'pincha "davlatda ijtimoiy tinchlik va ijtimoiy-siyosiy osoyishtalikni ta'minlaydigan aholi uchun maqbul turmush darajasi" shaklida o'rnatiladi. An'anaga ko'ra, shaxsning iqtisodiy xavfsizlik darajasi aholining asosiy guruhlarini moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanishini ifoda etuvchi, ruxsat etilgan chegaraviy qiymat ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Chegaraviy qiymat ko'rsatkichlar parametrlarining yanada pasayishi aholining mehnat qobiliyatini pasayishi bilan bog'liq tahdidlarini shakllantiradi,

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bo'lgan taxditlarni ichki va tashqi taxditlar nisbatan orqada qolishi, siklik o'zgarishlar, bozor konyunkturasidagi tebranishlar, iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik va inflatsiya darajasining boshqarib bo'lmaydigan darajalarda o'sishi, hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson, kapital resurslarining yetarli emasligi, ijtimoiy sohalar, shu jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalar rivojlanishining past darajadaliigi, mamlakatda ofatlar, favqulodda vaziyatlar hamda jahon iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyatlar, mamlakat tashqi qarzining haddan tashqari o'sib ketishi sababli ham vujudga kelishi

batan tajovuz reketda, tovlamachilik va firibgarlikda o'z ifodasini topadi. Shaxsning

Shaxsning o'ziga bog'liq bo'lgan tahdidlar ichki tahdidlar hisoblanadi. Bu turdagi tahdidlarga shaxsning o'z oldiga noto'g'ri maqsadlar qo'yganligi; bilim va kasb-malaka darajasining pastligi yoki yo'qligi; kam haq to'lanadigan ishlarda bolalari ko'p bo'lishi; tug'ma nogironlik; insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarining cheklanganligi; qariganligi va kasalliklari hamda travmalar sababli mehnat qobiliyatini vaqtinchalik va butunlay yo'qotganligi; boquvchisidan ayrilib qolishi; insonning qat'iyatsizlik, sabrsizlik, jizzakilik, shoshqaloqlik,

lik va nosogʻlom hayot tarzi)ga moyillik; omadsizlik kiradi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi tizimini shakllantirishda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati muhim oʻrin tutadi, shu bois shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi mamlakatning ijtimoiy sohadagi iqtisodiy xavfsizligini taʼminlash masalalariga katta urgʻu beriladi. Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasida aholini iqtisodiy qoʻllab-quvvatlash maqsadida davlat iqtisodiy siyosati oʻz-oʻzini band qilish tizimini yaratish orqali daromadlarni koʻpaytirish va qarorlar qabul qilishda mustaqillikni amalga oshirish boʻyicha iqtisodiy subyektlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan jihatlari shakllantirilmoqda. Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligi, masalan, ishsiz sifatida roʻyxatdan oʻtgan fuqarolar tomonidan kichik korxonalar tashkil etish boʻyicha dasturlarni amalga oshirish orqali yangi ish oʻrinlari tashkil etish,

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “Birinchidan, kambagʻallikni qisqartirish borasida kompleks olishimiz kerak – kambagʻallik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan oʻz-oʻzidan hal boʻlib qolmaydi. Buning uchun taʼlim, sogʻliqni saqlash, kasb-hunarga oʻqitish, ichimlik suv, energiya va yoʻl infratuzilmasi bilan bogʻliq kompleks muammolarni hal etib borish kerak”[14] deb taʼkidlaganlar.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 oktabrdagi “Oilaviy loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4498-sonli qarori bilan hunarmandchilik, ayollarni qoʻllab-dehqon va dehqon xoʻjaliklari faoliyatini yaxshilash; har bir oila - bu tadbirkor dastur; aholi bandligini taʼminlash maqsadida kichik biznes subyektlariga imtiyozli 15 foizli kreditlar berilishi yoʻlga qoʻyildi.

Jahon banki "kambagʻallikning xalqaro koʻrsatkichi" tushunchasini kiritib, daromadlar boʻyicha kambagʻallik tasnifini kiritdi. Bunda asosiy yondashuv barcha davlatlar uchun bir xil boʻlib, fuqarolarning daromad darajasi toʻrt guruhga kishiga 1035 dollar yoki undan kam; past-oʻrta daromadga ega boʻlganlar yiliga 1036-4045 dollarni tashkil etadi; oʻrta-yuqori daromadga ega boʻlganlar, bunda yaʼni yiliga 12 536 dollar yoki undan koʻp topadiganlar kiritiladi. Oʻrtacha past daromadli mamlakatlarga, jumladan Oʻzbekiston uchun kambagʻallik chegarasi bir

kishiga kuniga 3,2 AQSH dollariga, yuqori o‘rtacha daromadli mamlakatlar uchun esa kuniga bir kishi uchun 5,50 AQSH dollari teng deb e’tirof etilgan[15].

2-жадвал

O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlarining shakllanishiga ko‘ra tarkibi (%) da

| Ko‘rsatkichlar | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil |
|--|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Umumiy daromadlar- jami, shu jumladan: | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| birlamchi daromadlar | 76,2 | 77,5 | 76,2 | 75,4 | 73,6 | 70,2 |
| ishlab chiqarishdan olingan daromadlar | 71,0 | 74,6 | 73,5 | 73,3 | 71,5 | 67,9 |
| mehnat faoliyatidan olingan daromadlar | 68,8 | 66,7 | 66,1 | 65,9 | 65,0 | 61,6 |
| yollanma ishchilarning daromadlari | 34,3 | 24,8 | 27,2 | 27,3 | 27,5 | 28,3 |
| mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar | 34,5 | 41,9 | 39,0 | 38,6 | 37,4 | 33,3 |
| shaxsiy iste‘mol uchun o‘ziga ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar | 2,2 | 7,9 | 7,4 | 7,4 | 6,5 | 6,3 |
| mol-mulkdan olingan daromadlar | 4,2 | 2,9 | 2,7 | 2,1 | 2,2 | 2,3 |
| transfertlardan daromadlar | 24,8 | 22,5 | 23,8 | 24,6 | 26,4 | 29,8 |
| umumiy daromadlar jami miqdoridan kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar | 64,3 | 64,2 | 61,8 | 60,3 | 60,1 | 59,4 |

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jahon bankining texnik yordamida minimal iste‘mol xarajatlari qiymatini aniqlashdi va u bir shaxsga oyiga 498 so‘mni tashkil qilmoqda[16]. Agarda kambag‘al shaxsning kunlik iste‘mol qilayotgan tovarlar va xizmatlar xajmi 1,90 dollarga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, unda ushbu shaxs bir oyda 30 kunda 646,4 so‘mlik tovarlar va xizmatlar iste‘mol qilishi kerak, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan hisoblagan 498 so‘m emas.

O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlarining shakllanishiga ko‘ra tarkibi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi olti yilda mehnat faoliyatidan olingan daromad 68,8 %dan 61,65gacha o‘zgargan. Bu tadqiq etilayotgan davrda aholining transfertlardan olingan daromadlarini 24,8%dan 29,8%ga o‘shishi hisobiga yuz bergan. Tadqiq etilayotgan davrda mehnat faoliyatidan olingan daromadlar tarkibida yollanma ishchilar daromadini 34,5%dan 28,3%ga pasayganini va

mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni o'rganligini kuzatish mumkin. Bu davlatning aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvatlash va kambag'allikni kamaytirish va aholini tadbirkorlik faolligini oshirish bo'yicha olib borgan chora-tadbirlari natijasi sifatida xamda 2022 yilga kelib birlamachi daromadlar – 70,2 %, o'z-o'zini band qilishdan daromad 33,3% ni tashkil qilib, mazkur ko'rsatkichlar mehnat munosabatlari sohasidagi olib borilayotgan o'zgarishlar natijasida deb hisoblash mumkin.

2022 yilga kelib aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni o'z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromatlardan (jami aholi umumiy daromadlarining 61,6 % i) shakllandi, hamda nominal o'sish sur'ati 2021 yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ni tashkil etdi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 6,3 %, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 2,3 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 29,8 % ni tashkil qildi. Tadqiq etilayotgan davrda kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushining o'sishi esa mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishning eng muhim omili sifatida kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun ishonchli huquqiy kafolatlar yaratilganligidan deb baholash mumkin. Aholining kambag'al toifasi tezkor iqtisodiy o'sishdan foyda ko'rish imkoniyatidan mahrum bo'libgina qolmay, jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati cheklanganligi tufayli rivojlanishga ham hissa qo'sha olmaydi. Bu aholining kambag'al toifasining miqdorini o'sishi mamlakatda iqtisodiy o'sishga katta taxdit sifatida baholash mumkin.

Xulosa sifatida iqtisodiy adabiyotlarda shaxsning iqtisodiy xavfsizligi deganda "shaxsning manfaatlarini huquqiy va iqtisodiy himoya qilishni ta'minlovchi turmush faoliyati holati" tushuniladi deb baho berilgan [17]. Respublikamizda chop etilgan boshqa bir iqtisodiy adabiyotda "Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nafaqat davlat boshqaruvi organlari, xukumat, fuqorolik jamiyati institutlari, jamoat va nodavlat tashkilotlarining birgalikdagi say-xarakterigagina, balki xar bir fuqoroning o'ziga xam bog'liqdir deb ta'kidlab o'tilgan [18]. Bizning fikrimizcha, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi - bu aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirilishini belgilab beruvchi daromadlari va mulkiy salohiyati bo'lib, bu salohiyatning uzoq muddat davomida ta'minlanishini kafolatlaydi. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun tegishli shart-sharoitlarning mavjudligi, inson manfaatlari va ehtiyojlari qondirilishining turli xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanganligi, ijtimoiy barqarorlik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan erkin foydalana olish imkoniyatlarining ta'min

etilishi, fuqarolarning qonuniy haq-huquqlarini kafolatlanganligi sifatida tushunishimiz mumkin.

Tranzitiv iqtisodiyot sharoitida shaxslarning iqtisodiy xavfsizligini shakllantirish faqat ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalarini baholash bilan murakkablashadi va iqtisodiy agentlarni bir tomonlama o'rganish va uning alohida guruhlar muammolarini hal qilish, bu maqsadni amalga oshirishga imkon bermaydi. Umummilliy rivojlanish yo'lidagi milliy to'siqlarni va ularning oqibatlarini emas, balki muammolar manbasini hal etish yo'llarini ko'rib chiqish zarurligi shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishni dolzarblashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi 21.12. 2022 yil.
2. Davis L., North D. Institutional Change and American Economic Growth. – Cambridge, 1971. –pp. 5-6.
3. Квашницкий, В. Истоки эволюционной экономики / В. Квашницкий // Истоки: из опыта изучения экономики как структуры и процесса / [редакционная коллегия: Я.И. Кузьминов и др.]. - 2-е изд. - Москва: Изд. дом ВШЭ, 2007. – С.95.
4. Степанова О.А., Чернова В.В., Котельникова М.А. Целевая функция т угрозы экономической безопасности личности// Социально-экономическое явления и процессы. Т.10.№2 2015-С.88.
5. Глотов С. А. Социальная безопасность: теоретико-правовой аспект / С. А. Глотов // Фундаментальные и прикладные исследования кооперативного сектора экономики. 2012. № 4. С. 119 – 122.
6. Asatullayev X.S., Mamatov A.A., Jo'rayev T.T.. Iqtisodiy xavfsizlik (Darslik). –T.: «TMI nashriyoti», 2023. B.124.
7. Abulqosimov M.X. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga taxditlar va ularni oldini olish yo'llari. // "Iqtisod va moliya" jurnali. 2017. №12 son. -B. 21.
8. Martins-da-Rocha V. F., Vailakis Y. Financial Markets with Endogenous Transaction Costs / V. F. Martins-da-Rocha, Y. Vailakis // Economic Theory. – 2010. – Vol. 45. – P. 65–97.
9. Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi" 2021 yil. – B.432.
10. Abulqosimov X., Abulqosimov M. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot" T. 2019 yil "Noshirlik yog'dusi" nashriyoti. –B.78.
11. Jo'rayev T.T.. Iqtisodiyot nazariyasi. (O'quv qo'llanma). –T.: «Fan va texnologiya», 2017, -B.621.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

13. Qobilov Sh.R. Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish: Monografiya.-T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2017 y.-B. 208.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.//Xalq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr.

15. Sanaqulova B.R., Qayumov S.A Kambag‘allik darajasini aniqlash va uni pasaytirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. № 3, iyun, 2021 yil. ISSN: 2181-1016.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2021 yil 27 avgustdagi №544 son. “Minimal iste’mol xarajatlari qiymatini aniqlash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi qarori.

17. Теория переходной экономики: учеб.пособие / под ред. И. П. Николаевой. – М.: ЮНИТИ: Изд-во полит.лит. «Единство», 2001. – 487 с.

18. Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma.-T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi, 2021 .-B.99.

Iqtisodiy tadqiqotlar

ELEKTRON ILMIY JURNALI

Таҳририят манзили:

100003, Тошкент ш., Чилонзор тумани, И. Каримов кўчаси 49-уй

Телефонлар *****